



THE KARAKALPAK ETHNO-NATIONAL GROUP IN THE BUKHARA EMIRATE (THE EXAMPLE OF THE ZARAFSHAN VALLEY)

Gayrat Ganievich Xamrayev

Senior teacher

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Bukhara Emirate, Ethnic Composition, Zarafshan Valley, Qaraqalpaq, Nomadic Life, Agricultural Settlements, Historical Context, Ethnic Groups, Urban and Rural Life, Cultural Diversity, Migration, Sirdarya, Amu Darya.

Received: 26.04.25

Accepted: 28.04.25

Published: 30.04.25

Abstract: This study examines the ethnic composition of the Bukhara Emirate, particularly in the Zarafshan, Kashkadarya, and Surkhandarya valleys, during the late 19th and early 20th centuries. The population included Turkic-speaking groups like Uzbeks, Turkmens, Kazakhs, Kyrgyz, and Karakalpaks, along with Persian-speaking Tajiks and Iranian ethnic groups. The Karakalpaks migrated to the Zarafshan Valley in the 17th-18th centuries, settling in less populated areas. By the 20th century, they integrated into the Uzbek community, reflecting a blend of nomadic and settled lifestyles.

BUXORO AMIRLIGIDA QORAQALPOQ MILLIY-ETNIK GURUHI (ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA)

G'ayrat G'aniyevich Xamrayev

katta o'qituvchisi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Калит сўзлар: Buxoro amirligi, Etnik tarkib, Zarafshon vodiysi, Qoraqalpoq, Ko'chmanchi turmush, Dehqonchilik, Tarixiy kontekst, Etnik guruuhlar, Shahar va qishloq hayoti, Madaniy xilma-xillik, Migratsiya, Sirdaryo, Amudaryo.

Аннотация: Ушбу тадқиқот Бuxoro amirligi davridagi, аyniqsa XIX-XX asr boshlaridagi Zarafshon, Qashqadaryo va Surxon vodiylaridagi etnik tarkibni tahlil qiladi. Aholi tarkibida o'zbeklar, turkmanlar, qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar kabi turkiy tilli guruuhlar va tojiklar, eroniy etnik guruuhlar ham mavjud edi. Qoraqalpoqlar XVII-XVIII asrlarda Zarafshon vodiysiga ko'chib kelib,

keyinchalik o‘zbeklar jamiyatiga qo‘sildilar,
bu davrda ko‘chmanchi va o‘troq hayot tarzlari
birlashdi.

КАРАКАЛПАСКАЯ ЭТНО-НАЦИОНАЛЬНАЯ ГРУППА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (НА ПРИМЕРЕ ДОЛИНЫ ЗАРАФШАН)

Гайрат Ганиевич Хамраев

Старший преподаватель

Джизакский Государственный Педагогический Университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бухарское эмиратство, Этнический состав, Долина Зарафшан, Каракалпаки, Кочевая жизнь, Земледелие, Исторический контекст, Этнические группы, Городская и сельская жизнь, Культурное разнообразие, Миграция, Сырдарья, Амударья.

Аннотация: Исследование рассматривает этнический состав Бухарского эмирата, особенно в долинах Зарафшан, Кашкадарья и Сурхандарья в конце XIX - начале XX века. Население состояло из тюркских народов, таких как узбеки, туркмены, казахи, киргизы и каракалпаки, а также таджиков и иранских этнических групп. Каракалпаки переселились в долину Зарафшан в XVII-XVIII веках и позже интегрировались в узбекское общество, что отражает сочетание кочевого и оседлого образа жизни.

Buxoro amirligi davrida, ayniqsa, amirlik tarixi uchun yozma ma'lumotlar ko‘p uchraydigan XIX-XX asr boshlarida Zarafshon, Qashqadaryo, Surxon vohalari, Sharqiy Buxoro, Amudaryoning yuqori va o‘rta havzasidagi etnik holatga nazar tashlaydigan bo‘lsak, asosan quyidagicha manzara ko‘zga tashlanadi. Amirlik aholisining katta qismini turkiy tilli aholi – o‘zbeklar, turkmanlar, qozoqlar, qirg‘izlar va qoraqalpoqlar, sezilarli bir qismini esa forsiy tilli aholi – tojiklar, Badaxshon va Pomir tog‘lari orasidagi turli eroniy elatlari tashkil etgan. Shuningdek, amirlik mahalliy aholisining kichik bir qismi tojik tilli lo‘lilar hamda bir qismi o‘zbekcha, bir qismi esa tojikcha so‘zlashuvchi arablardan iborat bo‘lgan. Shu bilan birga, xuddi arablar kabi sezilarli bir qismi o‘zbekcha, kichik bir bo‘lagi esa tojikcha so‘zlashuvchi “eroniy”lar ham amirlik hududida yashab, ular ko‘proq Buxoro va Samarcand shahrida istiqomat qilishgan. Bundan tashqari, asosan Buxoro shahrida, qisman Samarcand, Shahrisabz shaharlarida tarqalgan yahudiylar ham Buxoro amirligi aholisining bir qismini tashkil etgan .

Yuqorida ta’kidlangan elatlari orasida qoraqalpoqlar xaqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida Qoraqalpoq nomli qishloqlar ham mavjud bo‘lib, ular boshqa hududlarga qaraganda Zarafshon vohasida anche ko‘pchilikni tashkil etgan. Qushbegi hujjatlarida ushbu etnonim bilan bog‘liq aholi maskanlari vohadagi Xatirchi viloyatining Bolo-yi Nahr-i Tos, Dam-u Gipon, Poyon-i Nahr-i Tos, Pirmast tumanining Pirmast

amlokligida, Harqon-rud tumanining Davr-qo‘rg‘on mavzesida, Karmana bekligining Yangi-qo‘rg‘on amlokligi Duldul mavzesida, ushbu beklikning Qasaba amlokligi Durman mavzesida va Cho‘li Turkiston amlokligining Turkiston mavzesida, Xutfar tumanida Qoraqalpoq nomli, Ziyaddin bekligining Sultonobod amlokligida Qoraqalpoq-i Arbob va shu beklikning Sulton-rabot Qoraqalpoq Xursang nomli qishloqlar mavjud bo‘lgan .

Buxoro amirligi davrida qoraqalpoqlar boshqa elatlarga nisbatan alohida ajralib turuvchi katta ko‘rsatkichlarga deyarli ega bo‘lishmagan. Ya’ni, tojik yoki turkmanlardan farqli o‘larоq qoraqalpoqlar o‘zbeklarga, aniqrog‘i, ko‘chmanchi o‘zbeklarga ancha yaqin bo‘lib, ularning urug‘-qabilaviy tuzilishi, so‘zlashuv tili va hokazo kabi etnomadaniy jihatlari Zarafshon vohasining ko‘chmanchi yoki yarim ko‘chmanchi, ko‘prog‘i kelib chiqishi Dashti Qipchoqqa borib taqaladigan o‘zbeklardan katta farq qilmagan. Darvoqe, ko‘chmanchi o‘zbeklar va qoraqalpoqlarning deyarli 80-90 % urug‘ nomlari bir xil ekani, so‘zlashuv tillarining esa qipchoqcha ekanligi, har ikkalasini asosan Volga – Urolbo‘yi kengliklarida, No‘g‘oy ulusi va Abulxayrxon davlati davrida bitta siyosiy uyushma tarkibida bo‘lib, bir xil ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarni boshdan kechirganliklari va hokazolar o‘zbek va qoraqalpoqlarning umumiy ildizlaridan darak beradi.

Zarafshon vohasiga qoraqalpoq elati vakillarining kelib joylashuvi asosan so‘nggi o‘rta asrlarda yuz bergen bo‘lib, ularning bir qismi Shayboniyilar va Ashtarxoniyilar, bir qismi esa Buxoro amirligi davrida bu hududga kelib o‘rnashganlar. Ularning Zarafshon vohasiga yoppasiga kelib joylasha boshlashlari XVII – XVIII asrlarda yuz berib, qalmoq va qozoqlar siquvi ostida O‘rta Sirdaryo havzasasi – Yassi (Turkiston) shahri atroflaridagi qoraqalpoqlarning katta bir qismi shimoli-g‘arbiy yo‘nalishda Quyi Sirdaryo, Orolbo‘yi va Quyi Amudaryo havzalariga, janubiy yo‘nalishda Zarafshon havzasiga, janubi-sharqiy yo‘nalish bo‘ylab esa Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysiga ko‘chadilar.

Muhimi shundaki, ushbu yo‘nalishlar tanlanishida “daryo omili” asosiy rol o‘ynab, ko‘p asrlardan beri Volga va Sirdaryo havzalarida ko‘chib yurib, asosan chorvachilik va baliqchilik bilan shug‘ullangan qoraqalpoqlar so‘nggi o‘rta asrlarda o‘zbek xonliklari Xiva va Qo‘qon xonliklaridan ruxsat so‘ragan holda yangi makonlarga borib joylashadilar. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, ular yangi joylarga ko‘char ekan u yerlarning iqlim sharoiti, aholisi nisbatan kam bo‘lgan qamishzor va dashtlik hududlarni tanlaydilar. Ehtimol, bunda borib joylashiladigan hududlarda mahalliy aholi bilan yer talashmaslik, mavjud infrastrukturaga halaqit bermaslik, yangi joylarni o‘zlashtirish orqali xonliklar iqtisodiga hissa qo‘sish va hokazo kabi omillar ko‘zda tutilgan. Zarafshon vohasida ham qoraqalpoq urug‘larining nisbatan unum dorligi oz, qamishzor va katta mehnatlar evaziga o‘zlashtirsa bo‘ladigan joylar bilan birga Bulung‘ur va atroflarida chorvadorlar uchun muhim bo‘lgan yaylovli yerlarga ko‘chganliklari diqqatga sazovordir.

XIX asrning so‘nggi yillari – XX asr boshlarida Zarafshon vohasi joy nomlarining sezilarli bir qismini “Qoraqalpoq” etnotoponimlari tashkil etadi . Ayniqsa, ushbu etnotoponim bilan atalgan o‘nlab qishloq va mahallalarni Zarafshon vohasining o‘rta havzasida, Zarafshon daryosining o‘ng va chap qirg‘oqlarida uchratish mumkin edi. Biroq, Yuqori va Quyi Zarafshonda buning birmuncha teskarisi kuzatiladi. Jumladan, Payariq, Pastdarg‘om tumanlarida Qoraqalpoq deb nomlangan bir necha aholi manzillari mavjud bo‘lib, ba’zan ular nayman urug‘ining bir tarmog‘i, ba’zan esa alohida urug‘ sifatida bilinar edilar. Shuningdek, XX asrda ushbu etnotoponim bilan yuritilgan aholi maskanlari Samarqand viloyatining Ishtixon, Pastdarg‘om, Paxtachi, Payariq tumanlarida, Buxoro viloyati Peshku, Vobkent, G‘ijduvon tumanlarida mavjud bo‘lgan.

Zarafshon qoraqalpoqlari XX asr boshlarida Zarafshon vohasi o‘zbeklarining tarkibiy bir qismi sifatida bilinib, ular “92 bovli o‘zbek urug‘i”ning birini tashkil etgan bo‘lishi ehtimoli bor . Zarafshon qoraqalpoqlarining hozirgi qoraqalpoq millati bilan qanchalik bog‘liqlik joyi bor, Orolbo‘yi va Amudaryoning quyi havzasidagi qoraqalpoqlar bilan ular orasida qandaydir bir etnik bog‘liqligi masalasi ham to‘laqonli hal etilmagan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, XVII–XVIII asrlarda Sirdaryo daryosining o‘rta va quyi havzalaridagi Yassi va Oqmasjid (Qizil O‘rda) shaharlari orasida asosan ko‘chmanchi hayot kechirgan qoraqalpoqlar, qalmoq va qozoqlar tazyiqi ostida o‘z yerlarini tashlab, yangi yerlar izlab ko‘chishga majbur bo‘lgan paytlarida ularning bir qismi esa Zarafshon daryosining o‘ng qirg‘og‘idagi nisbatan bo‘sh va kam o‘zlashtirilgan joylarni makon qiladilar . Bugungi kunda Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida, Farg‘ona vodiysida Sirdaryo qirg‘oqlarida Qoraqalpoq nomli qishloqlarning borligi o‘sha davr voqeliklari mahsulidir .

Zarafshon vohasida Qoraqalpoq nomli aholi maskanlarining paydo bo‘lishi ham asosan shu davr voqeliklari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan birga, ularning bir qismi XVI asrda Shayboniyxon boshliq ko‘chmanchi o‘zbeklarning Amudaryo – Sirdaryo oralig‘idagi vohalarga kelib joylashgan paytlari bilan ham bog‘lansa kerak. O‘rta asrlarda Dashti Qipchoq hududlarida, xususan, Volgabo‘yida yashagan qoraqalpoqlar XIV asrning birinchi yarmida Abulkayrxon tomonidan barpo qilingan “O‘zbek ulusi” tarkibida bo‘lib , “92 o‘zbek urug‘i”dan biri sifatida o‘sha davr yozma manbalarida qayd etila boshlagan edilar. XVI asrning boshlarida Dashti Qipchoq ko‘chmanchilarining katta bir qismi Sirdaryoni kechib o‘tib, hozirgi O‘zbekiston hududlariga kirib kela boshlagan paytda qoraqalpoqlarning bir qismi Sirdaryoning o‘rta havzalarida muqim turib qolgan bo‘lsalar, ularning bir qismi janubga siljib, boshqa o‘nlab o‘zbek urug‘lari qatorida asosan Nurota va Zarafshon, qisman esa Qashqadaryo vohalariga kelib o‘ranashadilar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, Buxoro amirligi davrida, ayniqsa, XIX – XX asr boshlarida Zarafshon, Qashqadaryo, Surxon vohalari, Sharqiy Buxoro, Amudaryoning yuqori

va o‘rta havzasidagi aholining etnik tarkibi turlicha bo‘lganligini ko‘ramiz. Qoraqalpoqlar asosan amirlikning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida – Zarafshon vohasining shimoliy qismida istiqomat qilganlar.

Amirlik davrida aholi ko‘pincha etnik mansubligiga qarab emas, xo‘jalik turmush tarziga qarab ikki bo‘lingan: shaharlar va o‘troq qishloqlarda yashaydigan, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanadigan o‘troq aholi – “qishloqnishin”, “dehonishin” va dasht va cho‘llarda yarim ko‘chmanchi va ko‘chmanchi turmush tarziga ega, chorvachilik bilan shug‘ullanadigan “dashtiy”, “sahroyi”, “sahronishin”, “dashtnishin” deb atalgan chorvador aholi. Shuningdek, tog‘ daralari va tog‘ yonbag‘irlarida yashagan aholi uchun ba’zan “kuhiy” (tog‘lik), “g‘alcha” (tog‘liklarga xos) kabi atamalar qo‘llanilgan. Shahar aholisi asosan o‘zbek va tojiklardan, qisman “eroniy” va yahudiylardan iborat bo‘lsa, o‘zbeklarning sezilarli bir qismi, qozoq, turkman va qoraqalpoqlar dasht va cho‘l aholisi, ya’ni chorvadorlar, qirg‘izlar tog‘lik chorvador sifatida bilingan. Tog‘lik aholining katta bir qismi tojik tilli aholidan iborat bo‘lsa, ayrim o‘zbek urug‘lari ham xuddi ular kabi tog‘lik aholi sifatida ayrim tog‘lik hududlarda – Turkiston, Zarafshon, Hisor tog‘ tizmalarida istiqomat qilishgan. So‘nggi o‘rta asrlarga kelib ko‘chmanchi o‘zbeklarning katta bir qismi va turkmanlarning sezilarli bir bo‘lagi o‘troqlashuvi natijasida dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan aholi miqdori ortib borgan.

Foydalanimgan adabiyotlar ro`yxati:

1. R. A. Ganiev. Buxoro amirligi tarixiga oid tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 1985.
2. T. I. Akhmedov. XIX-XX asr boshlaridagi Buxoro amirligi etnik tarkibi. – Samarqand: Samarqand universiteti nashri, 2010.
3. B. Shoshikova. Zarafshon vohasida qoraqalpoq elatining tarixi. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashri, 2007.
4. S. A. Qodirov. O‘rta Osiyo tarixida qoraqalpoqlar va ularning o‘zbek xalqi bilan aloqalari. – Toshkent: Sharq, 2009.
5. M. X. Mahmudov. Buxoro amirligi va uning etnik tarkibi. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashri, 2012.
6. Z. Z. Zohidov. Zarafshon vohasining ijtimoiy va etnik tarixi. – Toshkent: Fan, 2011.
7. Sh. S. G‘ulomov. O‘zbekistonning tarixiy geograflari va etnik aholisining shakllanishi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2005.N. M. Norbekov. Buxoro amirligi davrida aholi va ijtimoiy tuzilma. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2014.
8. T. Nematov. O‘rta Osiyo xalqlarining etnik rivojlanish tarixi. – Samarqand: Samarqand universiteti nashri, 2008.

9. S. R. Djalilov. Dashti Qipchoq va O'rta Osiyo: Tarixiy aloqalar va ko'chmanchi madaniyat. – Toshkent: O'zbekistan davlat nashriyoti, 2010.